



O'ZBEKISTONDAGI TUB O'ZGARISHLARNI XALQARO  
TASHKILOTLAR TOMONIDAN ETIROF ETILISHI  
(2017-2023)

Shozamonova Laylo

Tarix fakulteti

Tarix yo'nalishi II bosqich 202-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10791378>

**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 02-mart 2024 yil

Ma'qullandi: 04-mart 2024 yil

Nashr qilindi: 07-mart 2024 yil

**KEY WORDS**

*Yevropa Ittifoqi, investitsiya, YUNESKO, terrorizm, islohotlar, parlament, delegatsiya, speker, qo'mita, Jahon banki, ittifoq, shartnoma.*

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada O'zbekistonda 2017-2023 yillardagi tub o'zgarishlar xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilganligi va ular bilan hamkorlik aloqalaridagi yangi bosqichlar haqidagi tadqiqotlar tahlil qilingan.*

Markaziy Osiyo davlatlari doimo G'arb davlatlari nigohi qaratilgan mintaqaga hisoblanib, ular o'rtasidagi aloqalar besh ming yillik tarixga ega. So'nggi yillarda bir qator xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi bilan ko'p tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tashkilotlarning ham e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Xususan, 2022 yil 31 yanvar kuni Bryussel shahrida «O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi» Parlament hamkorligi qo'mitasining 15 yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari rahbarligidagi mamlakatimiz parlamenti delegatsiyasi ishtirok etdi.

Yevropa Ittifoqi O'zbekistonni yaxshi hamkor, istiqbolli sherik sifatida ko'rib yildan yilga ikki o'rtadagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligini takidlab kelmoqda. Yevropa davlatlari bilan savdo aylanmasida o'z aro bir tomonlama bo'lsa, Yevropa Ittifoqini doirasida ko'p tomonlama aloqalar bilan yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda.

Yevropa Ittifoqi delegatsiyasiga Yevroparlamentning Markaziy Osiyo mamlakatlari va Mongoliya bilan aloqalar bo'yicha delegatsiyasi raisining o'rinbosari Atidje Alieva-Veli boshchilik qildi.

Yevropa ommaviy axborot vositalari va madaniy-gumanitar sohalar vakillari ishtirokidagi matbuot tadbirlari doirasida bir qancha uchrashuvlar ham tashkil etildi.

«O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi» Parlament hamkorligi qo'mitasining Bryusselda bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishida Yevropa vakillariga Prezident Shavkat Mirziyoevning “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ma'no-mohiyati va ahamiyati haqida atroflicha axborot taqdim etildi. Yevroparlament deputatlari O'zbekiston tomonining ushbu dasturulamal hujjatni amalga oshirishga qaratilgan intilishlarini qo'llab-quvvatladi.

«O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi» Parlament hamkorligi qo'mitasining yig'ilishi ochiqlik, o'zaro hamjihatlik va amaliy muloqot ruhida o'tdi. Shu asnoda “Yevroparlament – O'zbekistonning do'sti, ba'zan tanqidiy jihatdan yondashishiga qaramay, sodiq va haqiqiy do'stidir”, deya ta'kidladi X.Xautala.<sup>1</sup>

2022 yilning 24 may kuni Jahon banki guruhi (JBG) Ijrochi direktorlar kengashi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston bilan Hamkorlik dasturini ko'rib chiqdi va tasdiqladi. JBG kelgusi besh yil davomida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Milliy taraqqiyot strategiyasida belgilangan strategik islohotlarni amalga oshirishda hukumatga ko'mak berish doirasida ushbu hujjatga tayanadi. Yangi hamkorlik dasturi Jahon banki guruhining (Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik mamlakat hukumati bilan hamkorlikdagi 30 yillik tajribasiga asoslanadi. 2017 yildan buyon guruhning xalqaro institutlari moliyalashtirish, tahliliy xizmatlar va texnik yordam ko'rsatishda hukumat bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.

2021 yil oktyabr oyida yurtimizga Jahon banki vitse-prezidenti Anna Berde tashrif buyurdi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.Umurzakov Jahon banki vitse-prezidenti Anna Berde bilan hamkorlikning bugungi holati va uni yanada chuqurlashtirishning istiqbollari yuzasidan muzokaralar olib bordi. Anna Berde COVID-19 pandemiyasining salbiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar izchilligini va erishilgan ijobiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ta'kidladi. O'zbekistonda yaratilgan eksportni qo'llab-quvvatlash tizimini tahlil etish, uni ilgari surish strategiyasini ishlab chiqish, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish bo'yicha birgalikda ish olib borishga, shuningdek, sanoat, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining asosiy drayverlarini aniqlash bo'yicha yangi yondashuv va uslublarini ishlab chiqish maqsadida hududlarni rivojlanish salohiyatini o'rganishga kelishildi.<sup>2</sup>

Jahon bankining O'zbekiston Respublikasiga yo'naltirayotgan investitsiyaviy mablag'lari O'zbekistonda ipoteka bozorini rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalashni qo'llab quvvatlashga qaratilganligini takidlash kerak.

Undan tashqari oxirgi bir necha yil barcha sohalarda amalga oshirilgan ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar, tub islohotlar va bu borada erishilgan yutuqlar miqyos jihatidan mustaqil O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'ldi va xalqaro munosabatlar, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarga yangi davrni boshlab berdi.

Ma'lumki zamonaviy xalqaro munosabatlar ularda ko'p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'p tomonlama diplomatiya xalqaro hayotning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim jabhalarini qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining belgilovchi asosiy yo'nalishlaridan biri hamkorlikni mustahkamlash maqsadida BMT bilan sherikligimiz sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi”. Kelgusi yilda

<sup>1</sup> Akmal Saidov. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik: holati va istiqbollari. <http://pravacheloveka.uz/oz>.

<sup>2</sup> O'zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligini chuqurlashtirish istiqbollari muhokama qilindi. Yangi O'zbekiston gazetasi 2021 yil 3 oktyabr.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Inson huquqlari bo'yicha ta'lim” global forumi, yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo'yicha mintaqaviy konferensiyalarni o'tkazamiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30 iyul Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O'zbekistonda “Xalqlar do'stligi kuni” deb belgilashni taklif etaman.

Ta'kidlash joizki, 2020 yil 13 oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga uch yil muddatga 2021-2023-yillarga saylanishi va a'zo sifatida kengashning dastlabki uchrashuvida birinchi narta ishtirok etishi olamshumul va tarixiy voqealidir. Shu tariqa O'zbekiston hamda BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topmoqda. Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining Jahondagi yirik xalqaro tashkilot BMT bilan munosabatlari tenglik va manfaatli sheriklik asosida rivojlanib boraveradi.<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi bilan YUNESKO o'rtasidagi aloqalar ham jadal sur'atlarda ildamlamoqda. 2020 yida yurtimizga tashrif buyurgan bir qator tashkilot vakillari ham aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilganligini e'tirof etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 26 avgust kuni Samarqand shahrida BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO). YUNESKO Bosh direktori samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Yurtimizda boy madaniy merosni asrab-avaylash, turizm salohiyatini ro'yobga chiqarish, ta'lim va fan, atrof-muhit muhofazasi sohalarida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish borasidagi islohotlar ijobiy natijalar berayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.<sup>4</sup>

YUNESKO O'zbekiston bilan keng ko'lamli sheriklikni bundan buyon ham rivojlantirish va mustahkamlashda qat'iy ekani tasdiqlandi.

O'zbekiston a'zo bo'lgan tashkilotlardan yana biri bu “Shanxay hamkorlik tashkiloti” dir. Globallashuv va turli tahdidlar kuchaygan hozirgi zamonda hech bir muommoni alohida bir davlatning sa'y-harakati bilan techib bo'lmaydi. Shu ma'noda, O'zbekiston bilan SHHT o'rtasidagi hamkorlik ikki tomon uchun ham muhim masalalarni yechishda hamkorlikda harakat qilishga yo'l ochdi. Bugun 1996-1997 yillari “Shanxay beshligi” nomi bilan dunyo yuzini ko'rgan hamda 2001 yili O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi natijasida “Shanxay hamkorlik tashkiloti” deya o'zgartirilgan tashkilotning tuzilganiga 15 yil to'ldi. Mamlakatimiz ushbu muddat ichida samarali hamkorlik o'rnatgan nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri Shanxay hamkorik tashkilotidir. Ta'kidlash joizki. shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonda dolzarb muommolarni hal qilishda, xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda SHHT ning roli va ta'siri oshib bormoqda. SHHT ning O'zbekiston manfaatlarini bilan hamohang asosiy jihati, uning xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va ayirmachilik, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida namoyon bo'ladi. SHHT ijrochi kotibi Chjan Deguanning O'zbekiston tp'g'risida bildirgan fikrlari ham buni tasdiqlaydi.: “Bizning birinchi va asosiy xulosamiz – O'zbekiston SHHT a'zosi sifatida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatingiz hukumati va uning tuzilmalari tashkilotga kiruvchi barcha davlatlar tomonidan yuksak baholanayotgan tashabbuslarni ilgari surmoqda”.<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Sh. Rahmonov. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'zaro aloqalari. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz).

<sup>4</sup> O'zbekiston – YUNESKO: amaliy hamkorlikning yangi bosqichi. <http://pravacheloveka.uz/oz>.

<sup>5</sup> O'zbekiston – SHHT: tinchlik yo'lidagi o'zaro hamkorlik. [www.religions.uz](http://www.religions.uz).

O'zbekiston xalqaro maydonda odil, qat'iy va mustaqil siyosat yuritib kelayotgan, jug'rofiy jihatdan ham Markaziy Osiyoning o'zagini tashkil etadi, hududda xavfsizlik va taraqqiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Shuning uchun ham SHHT ning faoliyatini takomillashtirishda O'zbekistonning o'rnini beqiyosdir.

Shu o'rinda xulosa qilar ekanmiz O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari va aloqalari yildan yilga yaxshilanib va takomillashib bormoqda. Undan tashqari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan turli sohalardagi tub o'zgarishlar ham dunyo davlatlari bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar tomonidan ham etirof etilmoqda. Biz esa bundan xursand bo'lgan holda barcha sohalarni tubdan o'zgartirib, yangiliklar qilib, investitsiyalar bilan boyitib borishimiz kerak. Bunda xalqaro tashkilotlarning ham O'zbekistonni e'tirof etayotganligi quvonarli holdir. Yuqoridagi tashkilotlar vakillari tomonidan aytilgan gaplar va ilgari surilgan takliflar bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishimiz va O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini yanada yuqoriga ko'tarishimiz kerakligini anglatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akmal Saidov. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik: holati va istiqbollari. <http://pravacheloveka.uz/oz>.
2. O'zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligini chuqurlashtirish istiqbollari muhokama qilindi. Yangi O'zbekiston gazetasi 2021 yil 3 oktyabr.
3. Sh. Rahmonov. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'zaro aloqalari. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz).
4. O'zbekiston – YUNESKO: amaliy hamkorlikning yangi bosqichi. <http://pravacheloveka.uz/oz>.
5. O'zbekiston – SHHT: tinchlik yo'lidagi o'zaro hamkorlik. [www.religions.uz](http://www.religions.uz).

INNOVATIVE  
ACADEMY